

TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA O`QUVCHILARNING TADBIRKORLIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH SHAKL VA METODLARI

Ubaydullayev Solijon Qodirovich

Andijon davlat pedagogika instituti

Fizika va texnologik ta`lim kafedrası v.b dotsenti.

To`ychiyeva Sanobar Erkinjon qizi,

Odilova Umidaxon Alisher qizi

texnologik ta`lim yo`nalishi talabalari.

Annotatsiya: Jahonda Texnologiya fanini o`qitishda ta`lim jarayonida innavatsion va axborot texnologiyalarini qo`llash hamda ta`lim sifatini ta`minlash, o`quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, o`quvchilarni kasbga yo`naltirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda.. Mamlakatimizda fan, ta`lim va ishlab chiqarish sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida ta`lim tizimi muassalarida ayniqsa texnologiya fanini o`qitishda maktablarga juda ko`p yangi innavatsion texnologiyalar olib kirilmoqda va qulay jihoz va uskunalar bilan ta`minlanmoqda. Insoniyat XXI asr-yuksak rivojlangan texnika, axborot texnologiyalar asriga qadam qo`ydi. Bu texnologiyalarni intellektual, har tomonlama bilimga ega bo`lgan barkamol avlodgina samarali boshqara oladi. Xozirgi davr pedagogikasi yoshlarni tarbiyalashda, ularning kasb bo`yicha tor professional bilimlarni egallashlariga chek qo`yishni, uzluksiz ta`lim tizimida, jumladan, umumta`lim fanlaridan keng integrativ bilimlarga ega bo`lishlari zarurligini taqozo qiladi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning „ Jamiyat taraqqiyotining rivojlanishi , fan va texnika o`suvining jadallashuvi , axborotlar texnologiyasining kun sayin keng quloch yoyishi ,XXI asrni tinchlik asriga aylantirish uchun insoniyatni yangi xalqlar jamiyatga, chuqur integratsiyalashgan iqtisodiy makonga, yagona kommunikatsiya va axborotlar tizimiga kirib bormoqda. Bunday jamiyatda yashab ketish anchagina tayyorgarlik va katta bilimni talab qiladi.”- degan

soʻzlarida kelgusida aynan har tomonlama integrativ bilimli, intellektual yoshlarni tarbiyalash zarurligi eʼtirof etiladi.

Kalit soʻzlar: Harakatlar strategiyasi, tadbirkorlik koʻnikmalari, STEAM yondashuv, texnologiya fani, oʻquv ustaxonalari, kashfiyot, ixtiro, tadbirkorlik.

Аннотация: В мире ведутся исследования по использованию инновационных и информационных технологий в образовательном процессе при обучении технологиям, а также по обеспечению качества образования, развитию творческих способностей учащихся, ориентации учащихся в профессии. В результате проводимых в нашей стране реформ в сфере науки, образования и производства в учебные заведения, особенно в преподавание технологии, внедряется много новых инновационных технологий, школы оснащаются удобным оборудованием и инфраструктурой. Человечество вступило в XXI век — век высокоразвитой техники и информационных технологий. Только зрелое поколение, обладающее интеллектуальными, всесторонними знаниями, может эффективно управлять этими технологиями. Современная педагогика требует, чтобы при обучении молодежи она переходила от получения узкопрофессиональных знаний по своей профессии к получению широких интегративных знаний в системе непрерывного образования, включающих общеобразовательные предметы. Как сказал наш первый Президент И.А. Каримов сказал: «Развитие общества, ускорение научно-технического прогресса, все более широкое распространение информационных технологий превращают XXI век в эпоху мира, выводя человечество в новое общество наций, глубоко интегрированное экономическое пространство и единую систему коммуникаций и информации». «Жизнь в таком обществе требует большой подготовки и больших знаний», — сказал он, признав необходимость в будущем давать интеллектуальной молодежи всесторонние, интегративные знания.

Ключевые слова: стратегия действий, предпринимательские навыки, подход STEAM, технологическая наука, образовательные семинары, открытие, изобретение, предпринимательство.

Abstract: In the world, research is being conducted on the use of innovative and information technologies in the educational process in teaching Technology, as well as ensuring the quality of education, developing the creative abilities of students, and directing students to the profession. As a result of the reforms being carried out in the field of science, education and production in our country, many new innovative technologies are being introduced into educational institutions, especially in teaching technology, and schools are being provided with convenient equipment and facilities. Humanity has entered the 21st century - the age of highly developed technology and information technologies. Only a mature generation with intellectual, comprehensive knowledge can effectively manage these technologies. Modern pedagogy requires that in educating young people, they should not limit their acquisition of narrow professional knowledge in the profession, but rather acquire broad integrative knowledge in the system of continuous education, including general education subjects. Our First President I.A. Karimov's words, "The development of society, the acceleration of scientific and technical progress, the wide spread of information technology, in order to turn the 21st century into an age of peace, are bringing humanity into a new peoples' society, a deeply integrated economic space, a single communication and information system. Living in such a society requires considerable preparation and great knowledge." - recognize the need to educate intellectual youth with comprehensive integrative knowledge in the future.

Key words: Action strategy, entrepreneurial skills, STEAM approach, technology science, educational workshops, discovery, invention, entrepreneurship.

“Texnologiya” fani boshqa o`quv fanlaridan o`quvchilarning muayyan ishlab chiqarish sohalari bo`yicha bilimi, ko`nikma va malakalarini shakllantiruvchi yagona o`quv fani sifatida o`ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. “Texnologiya” fani mashg`ulotlari maxsus sinf xonalarida, o`quv-tajriba maydonida, o`quv-tarbiyaviy tadbirlar jarayonida, ishlab chiqarish korxonalarida, hunarmandchilik ustaxonalarida olib boriladi Bugungi kunda maktabgacha, umumiy o`rta, professional ta`lim tizimlarida ta`lim olayotgan o`quvchilarda sanoatlashgan mamlakatda ta`lim olishi,

yashashi va ishlashi uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasini ta'lim va fan sohalarida olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy zamirida yosh- avlodga tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birgalikda , kreativ qobiliyatlarni shakllantirish asosiy omil hisoblanadi. Shu sababli, jamiyat keng ko'lamli islohiyotlarni olib borishda o'quvchi –yoshlarni imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va ularni qo'llab- quvvatlash muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yilning 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan murjaatnomasida oltita yo'nalishga ajratgan holda murojaat qildi. Ushbu murojaatning ikkinchi yo'nalishida biz „Yangi O'zbekiston“ni „ijtimoiy davlat“ tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak. Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur shart-sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish demakdir. Shu bois, birinchi navbatda , e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab quvvatlashga qaratamiz. „, Najot- ta'limda, najot-tarbiyada, najot-bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi“ deb qilgan murojaatlarining tub zamirida ham bu boradagi islohotlarni keng ko'lamli ravishda olib borishni davrning o'zi taqozo etayotganligidan dalolat beradi.

Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilganini o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lim tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta'lim-tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o'z dolzarbligini yuqotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq halos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga xam ega bo'lamiz. Zotan, xozirgi zamon ta'limida davlat va jamiyat talabi hamda manfaatlari aks etib turishi kerak. Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim-tarbiya berishda

eng ilg'or pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi jahon tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda keng ko'lamdagi isloxotlarni uz boshidan kechirayotgan bizning ta'limimiz uchun bu katta ahamiyatga ega. Keyingi yillarda jahon ta'limi bo'yicha ko'pgina maqolalar, broshyuralar, qo'llanmalar chop etildi, unga bag'ishlab seminarlar, anjumanlar, o'qishlar, uchrashuvlar o'tkazildi. Bu bizning ta'lim tizimimizda, chet ellarda o'quv-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishiga e'tibor va qiziqishning tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligidan dalolatdir. O'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalari va innovatsiyalarni rivojlantirish istiqbollari oxirgi 30 yil ichida jamiyatni turli sohalarini tubdan o'zgartirdi. Shu bilan birga katta mehnat migratsiyasi, rivojlanmagan ijtimoiy infratuzilma qashshoqlik va ishsizlikning yuqori darajasi, infratuzilmaning eskirganligi, kadrlar kompetentsiyalarining iqtisodiy rivojlanish strategik maqsadlariga nomuvofiqligi, intellektual mulkni himoya qilish muammolari, oliy ma'lumot olish imkoniyatlarining cheklanganligi, yuqori texnologiya va ilm-fanga asoslangan ishlab chiqarishning rivojlanmaganligi, inson kapitali va imidjiga zarur miqdordagi investitsiyalarning sarflanmasligi, malakali xodimlarning yetishmasligi, o'rta bo'g'in rahbar va xodimlarning past darajadagi malakasi, ishchilarda mehnatga nisbatan rag'batning yo'qligi, ishchi va muhandis-texnik kasblar obro'sining tushgani, eskirgan ish usullaridan foydalanish kabi muammolar o'z yechimini kutmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlari yuqori darajada sanoatlashgan Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya, AQSH, Isroil, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida texnologik ta'lim tizimi ishlab chiqarishning asosiy bo'g'ini hisoblanib, jahon mehnat bozoriga malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim bosqichlari va tashkil etuvchilaridan biri deb qaraladi. O'quvchilar mehnat mahsulotlarini iste'molga chiqarishi va ushbu jarayonda tejamkorlik, uddaburonlik, ishbilarmonlik kabi fazilatlarini shakllantirish, ularni texnologik jarayonga tayyorlashning asosini tashkil etadi. Respublikamizda hozirgi kunda davlatimiz va jamiyatimiz hayotida, ijtimoiy, madaniy, siyosiy o'zgarishlar keng tus olmoqda. Bu o'zgarish va yangilanishlarga esa

prezidentimiz Sh. Mirziyoyev va davlatimiz bosh bo'layotganligi bizni yanada quvontiradi. Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohiyatlarda ta'lim –tarbiya tizimi muhim o'rin egallagan. Rivojlanayotgan mamlakatimizga zamonaviy kasb – hunarga ega va bilimli, intiluvchan yoshlar kerak. Shunday ekan biz avvalo, umumta'lim maktablarga e'tiborimizni qaratishimiz lozim. Maktab bitiruvchilarining qiziqishlaridan kelib chiqib ularning kasb- hunarga yo'naltirishimiz hozirgi kundagi yoshlarga yarilayotgan imkoniyatlar va tadbirkor yoshlarni prezidentimiz qo'llab quvvatlashlarini ularga yaratilayotgan sharoitlarni tushuntirib, ularga to'g'ri ko'nikmalar berishimiz lozim.

O'quvchilarni muayyan kasbga yo'naltirilsa, o'rta maxsus kasb- hunar ta'limi bosqichida o'quvchilar turli xil kasblarning asoslarini, kichik mutaxassisliklar darajasida zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallab o'zlaring kichik biznesiga ya'ni kichik tadbirkor bo'lishlariga imkoniyat va keng yo'l ochiladi.

Bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan tadbirkorlik faoliyatining barcha tarkibiy qismlari ishbilarmonlik muhitini yaratadi. Ishlab chiqarishni tashkil etish, yuridik shaxsni ro'yxatdan o'tkazish, buxgalteriya hisobi, soliqni hisoblash, bozorga kirish va boshqa munosabatlar bo'yicha ushbu munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari davlat tomonidan belgilanadigan, biznes huquqi deb ataladigan ma'lum bir sohada ajralib turadigan muayyan qonunlar va qoidalarni bilishlari zarur. Shuning uchun har qanday faoliyatni amalga oshirish uchun tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarni bilishi va tadbirkorlikning huquqiy faoliyat bilan yaqin aloqasini belgilaydigan qonuniy savodli shaxs bo'lishi kerak. Ishlab chiqarishni tashkil qilishda tadbirkor uchta omilni birlashtiradi: mehnat, yer va kapital. Buning uchun u o'z sohasining mutaxassisi bo'lishi, xom ashyoni qaerdan olishni, ishlab chiqarish jarayonini qanday tashkil qilishni bilishi, o'z kompaniyasi xodimlari bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishi, boshqarishi, buxgalteriya hisobini yuritishni bilishi zarur. Bularning barchasi ishni aniq tashkil etishni, mahsulot sifati va ishlarning bajarilishini hisobga olishni va nazorat qilishni, insonga ta'sir o'tkazish qobiliyatini talab qiladi.

Tadbirkorlik faoliyati ishlab chiqarish va boshqaruv faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Tadbirkor - bu o'z faoliyatida yangi texnologiyalardan foydalanadigan, yangi tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqaradigan, yangi ish o'rinlari yaratadigan innovator. Shuning uchun tadbirkorlik innovatsion faoliyat bilan bevosita bog'liqdir. Tadbirkor o'z navbatida quyidagi savollarga ya'ni: "nima ishlab chiqarish kerak? Qanday ishlab chiqarish? Kim uchun ishlab chiqarish kerak?. Shunga ko'ra, u nimani, qaerdan, kimdan va qanday narxda sotib olish va sotishni tanlaydi. Buning asosida tadbirkor va tovar iste'molchisi o'rtasida teng huquqli munosabatlar o'rnatiladi. Psixologik nuqtai nazardan, bu faoliyati ma'lum motivlarga asoslangan shaxs, masalan, jamiyatda ma'lum bir mavqega erishish, moddiy mustaqillikka erishish muayyan faoliyat sohasida o'z taqdirini o'zi belgilash demakdir. O'z maqsadiga yetishish uchun tadbirkor sherik, mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki yetkazib beruvchi bo'lishi mumkin, boshqalar uchun esa raqib, raqobatchidir. Tadbirkor o'zining g'oyalarini amalga oshirib, o'z biznesini tashkil etadigan, tavakkal qila oladigan, foyda olish va jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun bozorda o'z o'rnini topa oladigan tashabbuskor ijodkor, tashabbuskor shaxs degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Tadbirkorlik faoliyati insondan shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishni talab qiladi, bu birinchi navbatda bilim, ko'nikma va ko'nikmalar miqdori bilan emas, balki ularni egallash tezligi, yangi sharoitlarga moslashishi va o'zi uchun foyda olish va jamiyat ehtiyojlarini qondirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda, birinchi navbatda, iqtisodiy ta'lim va tarbiyaning pedagogik asoslari chuqur o'zgarishlar yuz berishi kerak. Jamiyat rivojlanishining zamonaviy talablariga javob beradigan iqtisodiy ta'limning maqsadli yo'nalishlarini kengaytirish zarur. Shunday qilib, quyidagilarni: iqtisodiy savodxonlik; iqtisodiy fikrlash tarzini, iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish, umumiy madaniyat darajasini oshirish, hayotiy pozitsiyani shakllantirish; ijtimoiy moslashuv, iqtisodiy ijodkorlik va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, kasbiy harakatchanlikni rivojlantirish zarur. Tadbirkorlik asoslarini o'qitish iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni eng ob'ektiv va maqsadga muvofiq ravishda ochib berishga, keyinchalik kundalik hayotda amaliy qo'llash uchun iqtisodiy bilim va

ko'nikmalarni to'liq o'zlashtirishga, tadbirkorning tashkilotchilik, xushmuomalalik, samaradorlik, maqsadga muvofiqlik va boshqalar kabi fazilatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Maktabda yuqori sinf o'quvchilari shaxsni shakllantirishning yakuniy bosqichidir, chunki bu davrda kognitiv qiziqishlarning (kognitiv inglizcha cognize – bilmoq, anglamoq, tushunmoq ma'nolarini anglatadi) rivojlanishi shu darajaga yetadiki, o'rta maktab o'quvchilari kattalarning aqliy ishlarining barcha turlarini, shu jumladan eng murakkablarini bajarishga deyarli tayyor. Kognitiv jarayonlar jarayonida o'rta maktab o'quvchilariga jiddiy mantiqiy xulosalar chiqarish, murakkab nazariy fikrlash va umumiy farazlarni chiqarish imkonini beradigan fazilatlar olinadi. Mamlakatimizda ro'y berayotgan jadal o'zgarishlar yosh avlodni o'z tanlovini qilishga, hamma narsani shaxsan boshqarishga va mustaqil pozitsiyalarni egallashga undaydi. Zamonaviy o'g'il-qizlar dunyoga, ayniqsa axloqiy va axloqiy xarakterdagi muammolarga yanada ochiq, erkin va dadil qarashlari bilan ajralib turadi. Maktab o'quvchilarining zarur ijtimoiy-psixologik rivojlanishining umumiy natijalari quyidagicha belgiladi: Birinchidan, mehnatga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyatni rivojlantirishi kerak, bu unga kelajakda kasblardan birini egallashga imkon beradi, keyin esa o'z ishini tashkil qiladi va kerak bo'lsa uni yaxshilaydi. Ikkinchidan, u dunyoqarashning asoslarini, shaxsning axloqiy va fuqarolik fazilatlarini, ilmiy, badiiy, huquqiy, diniy kabi ijtimoiy ong shakllariga yo'naltirilganligini, ushbu ong shakllarining mafkuraviy tamoyillari va talablariga muvofiq amalda harakat qilish qobiliyatini shakllantirgan bo'lishi kerak. Uchinchidan, turli guruhlarda, ularda o'rnatilgan munosabatlar me'yorlariga rioya qilgan holda muloqot qila olishi kerak. Shunday qilib, kasb tanlash arafasida turgan yuqori sinf maktab o'quvchilarining hayot rejalari va qadriyat yo'nalishlari ularning qiziqishlari va niyatlari bilan keskin farq qiladi — har bir kishi hayotda munosib o'rin egallashni, qiziqarli ish topishni, yaxshi pul topishni, baxtli oilaga ega bo'lishni xohlaydi. So'nggi yillarda mamlakatda boshqaruvning yangi iqtisodiy sharoitlariga o'tish yoshlarni doimo tashvishga solib kelayotgan masalaning dolzarbligini yanada oshirdi: yaxshi kasb-bu o'z qobiliyatingizni ro'yobga chiqaradigan va yaxshi pul topadigan kasb. Shunday qilib,

tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yuqori sinf o'quvchilarida shaxsiy iqtisodiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish hamda ularning jismoniy rivojlanishini va aqliy qobiliyatlarini shakllantirish zarur deb hisoblaymiz. Hozirgi kunda mehnat bozorining samarali mexanizmlarini joriy qilish, aholining ishchanlik faolligini oshirish, kambag'al va ishsiz fuqarolarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish, shu asosda ularni doimiy daromad keltiradigan mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish orqali bandligini ta'minlashga qaratilgan davlat miqyosidagi keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yuklatilgan vazifalarni ijobiy hal etishda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlarini amalga oshirishning shart-sharoitlari va imkoniyatlariga mos pedagogik uslubiy asoslar mavjuid. Ushbu pedagogik uslublarni samarali qo'llash orqali kerakli ijobiy natijjalarga erishish mumkin. Zaruriyat bo'yicha kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirishda biz quyidagi pedagogik uslubiy asoslarni to'g'ri qo'llash lozim deb hisoblaymiz. Texnologiya fani o'qituvchisiga kasb tanlashga yo'llashda boshqaruvchilik ahamiyati, metodistning psixologik-pedagogik, umumtexnik va umumta'lim tayyorgarligi kabi qo'yiladigan talablardan iborat pedagogik asoslariga qarab har bir mashg'ulotni mavzu materialini tayyorlash kerak. Kasbga yo'naltirishda kuzatish, o'quvchi shaxsini o'rganish, diagnostik suhbatlar kabi ishlarni amalga oshiruvchi bosqichlar mazmunan uzviy bog'liq va bir-birini to'ldirish kerak. Kasb tanlash ishining umumiy o'rta maktab tizimida eng avval o'qituvchining shaxsi, fan o'qituvchilari, sinf rahbari, maktab psixologi, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari va boshqa shaxslarni ma'suliyati va kasb tanlashga uslubiyoti aniqlashtirilishi kerak. Shuningdek, kasb tanlashga yo'llash komissiya va kengashlari, o'qituvchilar bilan metodik ishlarni tashkil qilish, o'quvchilar bilan ishlash; ota-onalar bilan ishlash kabi kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish rejalarini asosli holda tuzish kerak bo'ladi. Kasb tanlash ishining tarbiyaviy yo'nalishida maktabda tarbiyalash darslarda kasb tanlashga yo'llash, boshqa soha mutaxassisliklarni kasbiy faoliyati bilan tanishtirish, umumiy o'rta ta'lim maktabi atrofidagi korxonalarda bo'ladigan kasbiy faoliyatlar bilan tanishtirish, maktabdan

tashqari tashkilotlarga ekskursiyalarni tashkil qilish, ommaviy axborotlarning ahamiyati bo'yicha kasbga yo'naltirishni kompleks rejasini ishlab chiqiladi. Ushbu ishlarni amalga oshirishda Texnologiya fanining o'zni beqiyosdir. Texnologiya (grekcha: „techno“ – hunar, usta va „logos“ – fan, ta'lim)- degan ma'nolarni bildiradi. Texnologiya fanini rivojlantirish orqali o'quvchilarni kasb hunarga va shu egallagan hunar orqali o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishga ko'mak beramiz. Maktablarda 11-sinf ya'ni bitiruvchi yoshlar uchun fan sifatida „Tadbirkorlik asoslari“ fani o'qitilmoqda. Bundan ko'rinadi tadbirkorlik faoliyatini maktab davridan boshlab o'rgatilsa o'quvchilar uning mohiyatini tushunib borishadi. O'quvchilarni tadbirkorlikka yo'naltirishda avvalo ularning ijodkorlik qobiliyatini va iqtisodiy bilimlarini oshirish ularning kashfiyot va ixtirochiligini shakllantirish darkor. Ijodkorlik — insonning ijodiy qarorlar qabul qilish, tushunish, qabul qilish va tubdan yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati.. Ijodkorlik o'ziga xos hususiyatdir va u har bir bolada mavjud. Bundan tashqari, ijodkorlik bitta omil sifatida emas, balki har bir shaxsning ma'lum bir odamda turli darajalarda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan turli xil qobiliyatlarning birikmasi sifatida ko'rib chiqiladi. Shuning uchun psixologlar hamda pedagoglar uchun barcha bolalar potentsial ijodiy bo'lishi kerak.

MUHOKAMA

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning texnologik tayyorgarligini amalga oshirishning asosiy shakli – texnologiya ta'limi va tarbiyasi hamda kasbga yo'naltirish ishlari hisoblanadi. Maktab o'quvchilarida texnologiya fanidan tadbirkorlikka bo'lgan bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qitish shakllaridan o'quv ustaxonalarining o'zni juda katta ahamiyatga ega. O'quv ustaxonalarida fan yutuqlarining ishlab chiqarishga tatbiq qilinishini o'quvchilarga yaqqol ko'rsatib berish imkonini beradi. O'quvchilarda mehnat madaniyatini va ta'lim jarayonida ishlab chiqarishga bog'liq tadbirkorlik elementlarini to'g'ri tashkil etilishi o'quvchilarda tadbirkorlik sohasida oila byudjetiga keltiriladigan foydani ko'rsatib berish mumkin. O'quvchilarni tadbirkorlik masalalariga doir adabiyotga qiziqtirish, va ularda bu adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir. O'quvchilar tadbirkorlikka oid

qo'llanmalarni mustaqil o'qib tushuna oladigan va amaliy ishlarida bu qo'llanmalarni ishlata biladigan bo'lsinlar. Ammo fanning turli sohalaridan nimani qachon va qayerda amaliyotda qo'llash mumkinligini o'quvchilarga faqat nazariy jihatdangina ko'rsatish kifoya qilmaydi.

XULOSA

Maktabdagi texnologiya fanini maktab ustaxonasidagi faoliyatni yo'lga qo'yish va ularda davlat dasturida ko'rsatilgan barcha laboratoriya va amaliy ishlarni olib borish lozim. Buning natijasida o'quvchilar tadbirorlik ta'limi talablarini ta'minlay oladigan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari mumkin. Kichik sanoat zonalarining barpo etilishi, raqobat va investitsion muhitlarning yaxshilashinishi, kichik tadbirkorlik bilan davlat-xususiy sherikchiligi doirasida davlat haridlari hajmini kengaytirilishi, yirik va kichik korxonalar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorliklikni shakllanishi, investitsiya jarayonlariga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish orqali ko'rishimiz mumkin. Shuni ham takidlash joizki, yetarli eksport salohiyatiga ega bo'lgan biroq ayni paytda rivojlanish uchun yetrli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan yoshlarga ko'mak berish va ularni qo'llab quvvatlash katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dushaboev X.A. Mehnat ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligining shakllanish tuzilmasi. Zamonaviy fizika va Astronomiya yutuqlari: muammo va yechimlari. - T.:TDPU - 2011. - 205 b.
2. Kasb ta'limi uslubiyoti / Olimov Q.T., Abduquddusov O., Uzoqova L., Ahmedjonov M., Jalolova D. - Toshkent., Iqtisod moliya, 2006. - 192 b.
3. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari. Uslubiy qo'llanma. - Toshkent: TDPU, 2006. – 96 b.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz